



HAYOT DAVOMIDA TA'LIM OLİSH: YANGI PARADIGMALAR VA KUTILADIGAN NATIJALAR FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Ko'chimova Muxlisa Shokirovna, Lapasova Gulmira Maxmud qizi

SamDU Kattaqo'rg'on filiali 1 -bosqich talabalari

O'ZBEKISTONDA INKLIZIV TA'LIMNING RIVOJLANISHI

Annotatsia: Imkoniyati cheklangan bolalarni tarbiyalash masalasi bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda. Hozirgi kunda Respublikamizda alohida yordamga muhtoj bolalarning rivojlanish darajasi, imkoniyatlari, xususiyatlari va qobilyatlariga ko'ra maxsus yoki umumiy ta'lismi tizimida ta'lismi amalga oshirish maqsadida inklyuziv ta'lismi tizimi amalga oshirilmoqda.

Kalit so'zlar: Inklyuziv ta'lismi, "Bola huquqlari tog'risida"gi Konvensiya, anomal bola.

Inklyuziv ta'lismi bu-davlat siyosati bo'lib nogiron va sog'lom bolalar o'rtaсидаги то'siqlarni bartaraf etish, maxsus ta'limga muhtoj bolalarni rivojlanishdagi nuqsonlari yoki iqtisodiy qiyinchiliklaridan qat'iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umum ta'lismi jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lismi tizimidir. Imkoniyati cheklangan bolalarni tarbiyalash masalasi bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biriga aylanib bormoqda. Hozirgi vaqtida Respublikada alohida yordamga muhtoj bolalarning rivojlanish darajasi, imkoniyatlari, xususiyatlari va qobilyatlariga ko'ra maxsus yoki umumiy ta'lismi tizimida ta'lismi amalga oshirish maqsadida inklyuziv ta'lismi joriy etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida nogiron bolalar bilan bog'liq tahlil va dastlabki baholash ishlari 1966-yilda boshlangan. Hozirgi kunda O'zbekistonda 250 000 ga yaqin turli ko'rinishdagi nogiron bolalar ta'lismi olish ehtiyojiga ega.



BMT tomonidan 1989-yilda qabul qilingan “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiyasi hamma bolalarni shu qatori maxsus ehtiyojli bolalar huquqlarini ham himoya qiladi va qo‘llab-quvvatlaydi. Aynan 2, 3, 28, 29- moddalarda maxsus ehtiyojli bolalar huquqlari belgilangan.

Konvensiyaning 2-moddasi maxsus yordamga muhtoj bolalar uchun asosiy modda hisoblanadi. Unda mazkur Konvensiyadagi har bir modda irqi, dini, millati, etnik yoki ijtimoiy kelib chiqishidan qat’iy nazar barcha bolalarga tegishliliqi haqida ta’kidlanib, barcha huquqlar har bir bola uchun tegishli.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan imkoniyatlar, imkoniyati cheklangan bolalarni ta’lim olishi uchun yaratilmoqda. Ularni kelajakda biror kasb egallashi, shuningdek jamiyatda o‘z o‘rnini topib yetuk shaxs sifatida shakllantirishdan iborat.

O‘zbekistonda maxsus ta’lim sohasida quydagi tadbirlar amalga oshirilmoqda.

- yordamga muhtoj bolalar uchun moslashuvchan va ko‘p qirrali ta’lim tizimini yaratish;

- mahalliy va mintaqaviy miqyosda maxsus ta’limning tobora oshib borayotgan ahamiyati asosida ta’lim boshqaruvini markazlashtirish; yordamga muhtoj bolalarga yoshlikdan toshhis qo‘yish va kasalliklarni aniqlash uchun sharoit yaratish;

- milliy ta’lim standartlari asosida yordamga muhtoj bolalarga mo’ljallangan o‘quv qo’llanmalarni yaxshilash;

- ta’lim muassasalarining modiy- texnika bazasini mustahkamlash;

- nogiron bolalar bilan ishslashga ixtisoslashgan xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalarini kengaytirish;

- ko‘zi ojiz bolalar uchun mo’ljallangan turli kitoblar, metadalogik adabiyotlarni chop etish;

- nogiron bolalarni mahsus aravachalar, eshitish moslamalari, ko‘zoynaklar, sport anjomlari, ish asbob-uskunalar, kanselyariya mollari, maxsus mebellar va tibbiy uskunalar bilan ta’minlash;

- maxsus ta’lim sohasida kadirlar tayyorlash;

2005-yilning may oyida Toshkent shahrida Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi va “Sen yolg‘iz emassan” respublika jamoatchilik bolalar jamg‘armasi tomonidan “Ijtimoiy nochor bo‘lgan bolalarga ko‘mak berishning samarali shakl va usullari” nomli xalqaro forum o‘tkazilgan edi.

- 1996-yilning noyabr oyida YuNESKO ishlari bo‘yicha O‘zbekiston Milliy komissiyasi tashabbusi asosida Toshkentda “Maxsuz ta’lim sohasida inklyuziv usullar” mavzusida milliy o‘quv dastur muvaffaqiyatli amalga oshirilgan.

- 1998-yilning oktyabr oyida Buxoro shahrida ushbu mavzu bo‘yicha mintaqaviy anjuman tashkil etilgan edi.

- 2001-yilda O‘zbekiston Xalq ta’limi vazirligi qoshidagi Inlkyuziv ta’lim bo‘yicha manba markazi tashkil etildi.

- 2001-yilda O‘zbekiston Xalq ta’lim vazirligi huzurida ta’lim markazida tashkil etilgan.

Shuningdek 2021-2022 o‘quv yilida ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarida majburiy o‘rta ta’lim 11 yillik (intellektual) rivojlanishida nuqsonli bolalar uchun (yordamchi) maktablar, maktab internatlardan 9 yillik muddatlarda amalga oshiriladi.



Shuningdek, ularni kasbga o‘qitish kurslari tashkil etilib, bitiruvchilarga sertifikat beriladi. 2020-yil oktyabrda qabul qilingan Prezidentimizning alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yana-da takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarori qabul qilindi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki mamlakatimizda imkoniyati cheklangan anomal bolalarni jamiyatda o‘z o‘rmini topishida yordam berishdan iborat. Ushbu ta’lim tizimi orqali anomal bolalarga bo‘lgan fikr va qarashlarni o‘zgartirishdir. Ularni ota-onalari bilan birgalikda ish olib borishdan iborat. Ularni huquqlarini har tomonlama himoya qilishdan iborat. Anomal bolalarni qobiliyatlari va qiziqishlarini yuzaga chiqarishdan iborat. Shuningdek ularni jamyatda yetuk shaxs sifatida tarbiyalashdan iboratdir.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar.

1. Internet sahifasi <https://hozir.org>
2. Internet sahifasi <https://lex.uz>
3. Ijtimoiy axborot ta’lim portalı : www.ziyonet.uz
4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi : www.uzbdu.uz